



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

DESTRUKSIYANI IFODALOVCHI FE'LLARNING MOHIYATI VA O'RGANILISHI

Amonova Zamira

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada destruksiyani ifodalovchi fe'llarning leksik-semantik maydon tarkibiy qismi sifatidagi mohiyati va o'rganilish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Rus, boshqird, nemis va o'zbek tilshunosligida destruktivlik kategoriyasini tadqiq etishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinib, destruktiv fe'llarning semantikasi, valentligi, funksional-uslubiy xususiyatlari hamda kognitiv talqini yoritiladi. Ularni tasniflashda tizimli va funksional-semantik yondashuvlarga, shuningdek, semantik maydonning yadrosi va periferiyasi muammosiga alohida e'tibor qaratiladi. Destruktiv fe'llarni ularning metaforik, diskursiv va pragmatik salohiyatini inobatga olgan holda kompleks tadqiq etish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: destruksiya, destruktiv fe'llar, leksik-semantik maydon, semantik kategoriya, valentlik, funksional-semantik tahlil, metaforizatsiya, kognitiv yondashuv, yadro va periferiya, diskurs.

СУЩНОСТЬ И ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ДЕСТРУКЦИЮ

Амонова Замира

Узбекский государственный университет мировых языков, независимый исследователь

Аннотация

В статье рассматривается сущность и особенности изучения глаголов, выражающих деструкцию, как составной части лексико-семантического поля. Анализируются основные направления исследования категории деструктивности в русской, башкирской, немецкой и узбекской лингвистике, освещаются вопросы семантики, валентности, функционально-стилистических характеристик и когнитивной интерпретации деструктивных глаголов. Особое внимание уделяется системному и функционально-семантическому подходам к их классификации, а также проблеме ядра и периферии семантического поля. Подчеркивается необходимость дальнейшего комплексного исследования деструктивных глаголов с учетом их метафорического, дискурсивного и прагматического потенциала.

Ключевые слова: деструкция, глаголы деструкции, лексико-семантическое поле, семантическая категория, валентность, функционально-семантический анализ, метафоризация, когнитивный подход, ядро и периферия, дискурс.

THE ESSENCE AND STUDY OF VERBS EXPRESSING DESTRUCTION

Amonova Zamira

Uzbekistan State World Languages University, Independent Researcher

Abstract

The article examines the essence and specific features of studying verbs expressing destruction as an integral part of the lexical-semantic field. It analyzes the main research directions of the category of destructiveness in Russian, Bashkir, German, and Uzbek

linguistics, highlighting issues of semantics, valency, functional-stylistic characteristics, and the cognitive interpretation of destructive verbs. Particular attention is paid to systemic and functional-semantic approaches to their classification, as well as to the problem of the core and periphery within the semantic field. The necessity of further comprehensive research on destructive verbs is emphasized, taking into account their metaphorical, discursive, and pragmatic potential.

Keywords: destruction, verbs of destruction, lexical-semantic field, semantic category, valency, functional-semantic analysis, metaphorization, cognitive approach, core and periphery, discourse.

Til inson tafakkurining eng muhim ifoda vositasi bo'lib, unda borliqdagi harakat, holat va munosabatlar turli grammatik hamda leksik birliklar orqali aks etadi. Harakatning dinamik xarakterini ifodalovchi asosiy birlik sifatida fe'l kategoriyasi til tizimida markaziy o'rin egallaydi. Fe'llar orqali nafaqat obyektiv voqelikdagi jarayonlar, balki insonning ichki kechinmalari, ijtimoiy munosabatlari va konseptual tasavvurlari ham ifodalanadi. Shu jihatdan harakatning yo'nalishi, natijasi va semantik bahosini bildiruvchi fe'llarni o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Destruksiya ifodalovchi fe'llar harakatning buzish, yemirish, parchalash, yo'q qilish, izdan chiqarish kabi salbiy natijaga yo'naltirilgan turini bildiradi. Ular tilning leksik-semantik tizimida muayyan semantik maydonni tashkil etib, harakatning obyektga ta'siri va natijaviyligini aniq ko'rsatib beradi. Bunday fe'llar nafaqat moddiy predmetlarga nisbatan, balki abstrakt tushunchalar — munosabatlar, tizimlar, g'oyalar va ruhiy holatlarga nisbatan ham qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Natijada destruksiya konsepti til orqali inson tafakkurida keng qamrovli semantik model sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, destruktiv ma'noni ifodalovchi fe'llar ko'plab lingvistik yo'nalishlar — leksikologiya, semasiologiya, kognitiv lingvistika va pragmatika nuqtayi nazaridan yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Ko'pincha ular umumiy harakat fe'llari tarkibida ko'rib chiqilib, ularning ichki semantik differensial belgilari, intensional xususiyatlari hamda metaforik kengayish imkoniyatlari alohida tadqiq etilmagan. Holbuki, destruktiv fe'llarning semantik tarkibini aniqlash fe'l kategoriyasining ichki tasnifini aniqlashtirish va harakat konseptining kognitiv modelini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — destruksiya ifodalovchi fe'llarning semantik mohiyatini ochib berish, ularning leksik-semantik guruh sifatidagi o'rnini aniqlash hamda o'rganilish tarixini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun destruktiv ma'noni ifodalovchi fe'llarning semantik komponentlari, ularning intensional va natijaviy xususiyatlari, shuningdek, ko'chma ma'nodagi qo'llanish holatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, komponent tahlil va semantik taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Natijada destruktiv fe'llarning til tizimidagi o'rni, ularning semantik maydon doirasidagi aloqalari hamda nutqdagi funksional imkoniyatlari aniqlashtiriladi. Mazkur izlanish fe'l semantikasini yanada chuqurroq anglashga, harakatning salbiy yo'nalishini ifodalovchi birliklarning tizimli xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Destruksiya semantik kategoriyasi boshqa semantik kategoriyalar kabi o'ziga xos qiymatga ega bo'lgan umumiy leksik-semantik maydonning bir qismi hisoblanadi. Destruksiya ifodalovchi fe'llar guruhlarini lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganish, ularning boshqa semantik maydonlar bilan kesishish chegarasini aniqlash, qardosh bo'lmagan tillarda leksik-semantik tahlilini amalga oshirish va bu yo'lda turli tahlil metodlaridan foydalanish tilshunoslikning mavqeini yana bir pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Fe'llarning leksik-semantik jihatdan tasniflash masalasini birinchilardan bo'lib V.V.Prokopov taklif etgan bo'lsada, ushbu muammoga chuqurroq yondashilganligini o'tgan asrning 70-90 yillaridagi tadqiqotlarda kuzatish mumkin. [Fatkulina, 26] Mazkur ishlarning ayrimlarida tadqiqot obyekti sifatida destruksiyanı ifodalovchi fe'llar tanlangan. Hozirgi kunga qadar destruksiyanı ifodalovchi fe'llarning semantikasi, valentligi, funksional tavsifi, leksik-semantik jihatlarini F.K.Buraixi, F.G.Fatkulina, R.R.Galiyeva (rus tili), D.E.Gizatulin (rus va boshqird tillari), Ye.V.Razova (nemis tili), A.P.Sultanova (rus va ingliz tillari), Z.V.Todisenko (rus, ingliz va tatar tillari) har jihatdan tahlil qilishga, tasniflashga va o'z xulosalarini taqdim qilishga uringan bo'lsalar, boshqa olimlar (Z.V.Todisenko, L.V.Muxachova, S.Muhamedova, Ye.S.Danilova, R.Rasulov, S.Ye.Kuzmina, S.A.Tixonov, D.F.Xakimzyanova) o'z tadqiqotlari doirasida destruksiyanı ifodalovchi fe'llarni umumiy semantik maydonning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qisman muhokamaga tortishdi. G.L.Naxrachova (xanti tilining shurishkar lahjasidagi) olib borgan ilmiy izlanishlari fe'l so'z turkumining tadqiqi va tahlilining keyingi taraqqiyot bosqichi uchun xizmat qiladi. Tahlil etilgan tadqiqotlar ko'lamı destruksiyanı ifodalovchi fe'llarning semantikasi, valentligi, funksional tavsifi, leksik-semantik tasniflanish borasidagi izlanishlar yakuniga yetmagani va ushbu muammolarning yechimi bilan bog'liq bir qancha yondashuvlarga e'tibor qaratilishini taqazo etdi.

T.A.Potapenko texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning inson hayotidagi ahamiyatini tahlil qilish jarayonida texnologik rivojlanishning shaxs ruhiyatiga ta'sirini o'zgarishga alohida e'tibor qaratdi. O'z tadqiqotlaridan birida u vayron qilishni ifodalovchi fe'llar va ularning zamonaviy dunyoda qo'llanilish maqsadiga urg'u berdi. Muallif ta'kidlashicha, "yo'q qilish", "buzish", "sindirish", "vayron qilish" kabi halokat fe'llari inson ongiga chuqur ta'sir qiladi. Mojarolar, urushlar, terroristik hujumlar va vayronagarchiliklar haqidagi doimiy va shiddat bilan tarqalib kelayotgan yangiliklar dunyo va jamiyat haqida salbiy tasavvurni shakllantiradi. "Vayron etish semali semantik maydonning atrofida birlashgan fe'llar qo'rquv, beqarorlik va tashvishga tushish muhitini yaratadi. Ular odamlarning psixologik holatiga ta'sir qilibgina qolmay, hatto vahima va nochorlik hissini uyg'otadi".

T.A.Potapenko vayronkorlik semali fe'llarning shaxslararo munosabatlarga ta'sirini ham muhokamaga tortdi. Uning ta'kidlashicha, bunday salbiy mazmundagi so'zlarni doimiy ravishda ishlatish odamlar o'rtasida nizolar, ishonchsizlik va tajovuzga olib kelishi mumkin. Shuningdek, olima obyektlarga vayronkor ta'sir etishni ifodalaydigan fe'llarning fikrlash, his-tuyg'ular va xatti-harakatlarimizga ta'sirini anglash muhimligini ta'kidlaydi. U so'zlarni ongli ravishda tanlashga va muloqotda dunyo hodisalarini idrok etishda ijobiy qadriyatlarga murojaat qilishga chaqiradi.

Rus tilshunosligida destruktivlik semantik maydonidagi fe'llarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarini, funksional jihatlarini ochib berishga uringan F.G.Fatkulinaning dissertatsiyasi destruktiv harakat, holat va jarayonni ifodalovchi fe'llarni tahlil qilishda alohida ahamiyatga molik. Olima tilning turli (leksik, morfologik, sintaktik) sathlarida destruktivlik kategoriyasi ifodalanishining o'ziga xos tamoyillarini tavsifladi. Shuningdek, tadqiqotda destruksiyanı ifodalovchi semantik maydon birliklarining paradigmatic munosabatlarini va sintagmatikasini tahlilga tortdi. Turli so'z turkumlarini qamrab oluvchi destruktivlik maydoni doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lgan va bir-birini to'ldirib boradigan ikki soha – umumiste'mol hamda sohaviy (terminologik) leksikaga bo'linib ketadi. Umumistemol lug'at tarkibining struktur-semantik tuzilishida fe'l yetakchi o'rinni egallaydi, chunki ushbu soha maydonining yadrosini aynan fe'llar tshkil etadi. Ular destruktiv harakatning dinamikasi va jarayonini to'liq ifodalaydi. Shu sababli boshqa so'z turkumlariga mansub birliklar fe'lga (разрушать – vayron qilmoq, buzmoq) nisbatan funksional jihatdan hosila birliklar (разрушение – buzilish, разрушительный – vayron qiladigan, разрушительно – vayron

qiladigan holda) sifatida talqin qilinadi. Buzmoq (vayron qilmoq) fe'li funksional jihatdan ustuvor birlik sifatida qaraladi, buzilish esa mazkur maydonning asosiy nominativ markazi hisoblanadi. Destruksiyaning ifodalovchi fe'llar mazkur semantik maydonning yadrosi va periferiyasini shakllantiradi. Yadro maydon atrofidagi boshqa leksik-semantik variantlarning semantikasiga singib ketadigan, asosan, dominant komponentdan tashkil topgan, ma'nosi jihatidan ancha sodda, stilistik neytral va kamroq emotsional bo'yodkorlik xususiyatiga ega, ko'pincha boshqa destruktiv predikatlarning yasallishida ishtirok etadigan semantik va morfologik tub so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. Aksincha, periferiya (yadro atrofi)ni aksariyat qismi prefiksalar yordamida yasalgan, yadrodan ancha farqli murakkab morfologik va semantik tarkibga ega, biroq stilistik qo'llanilish jihatidan chegaralangan, ayrim hollarda nozik (destruktiv) ma'no o'ttenkasiga ega leksemalar (делить - bo'lmoq, taqsimlamoq) tashkil etadi [Fatkulina, 69-71]. Tadqiqotning e'tiborli tomoni shundaki, destruktiv vaziyat ko'p bosqichli jarayon sifatida talqin qilinadi: unda obyektning dastlabki mavjud holati, unga tashqi kuch tomonidan ko'rsatilgan ta'sir va bu ta'sir natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar aks etadi. F.G.Fatkullina tadqiqida ishlab chiqilgan tizimli yondashuv destruktivlik tushunchasining til tizimidagi murakkab va ko'p qirrali tabiatini ochishda, uning leksik-semantik tuzilishini chuqur tahlil qilishda va funksional-semantik maydonlar nazariyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Destruksiyaning ifodalovchi fe'llarning leksik-semantik, yasallish va sintaktik xususiyatlarini tizimli tahlil qilishda G.L.Naxrachovning dissertatsiyasi ham o'ziga xos fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy ishda ilk bor xanti tilining shurishkar lahjasi materiallari asosida destruktiv fe'llarning struktur-semantik xususiyatlariga ko'ra uch kichik leksik-semantik guruhi (harorat, kimyoviy-biologik, mexanik) tahlil qilinib, ularning gap qurilishidagi funksional-semantik ahamiyati ochib berildi [Naxrachova, 37]. Shuningdek, muallif jismoniy destruksiyaning ijtimoiy, psixologik, emotsional, intellektual va fiziologik sohalariga ko'chishini ilmiy asosda ko'rsatib, destruktiv fe'llarning metaforik salohiyatini ham yoritdi. G.L.Naxrachova yondashuvidagi kabi destruktiv ta'sir ma'nosini ifodalovchi fe'llarni leksik-semantik maydon tizimida "jismoniy ta'sir orqali obyektning yaxlitligini yoki tuzilishini buzish" umumiy semantik belgisi asosida uch asosiy semantik guruhga ajratib o'rganish g'oyasi F.K.Buraixi tadqiqot ishida ham ilgari surilgan. Unda "повреждать" - obyektning mikrostrukturasi buzilishi, "разрушать" - obyektning makrostrukturasi buzilishi, "уничтожать" - obyektning mutlaq yo'q qilinishini ifodalovchi fe'llar guruhlari mantiqiy o'lehov me'zoni asosida tasniflangan bo'lib, destruktiv jarayonning intensivligi va natijasiga ko'ra semantik farqlanishi aniq ko'rsatib berilgan. Ayniqsa, ikkinchi va uchunchi guruh fe'llarining obyekt bilan leksik birikuvchanligi chuqur tahlil qilinib, uch turdagi obyekt biriktiruvchanlik modeli: poliguruhli (obyektni biriktirib olish imkoniga ega keng ko'lamli fe'llar), monoguruhli (fe'l faqat bitta semantik guruhdagi obyekt bilan bog'lana oladigan o'timli fe'llar) va erkin birikuvchanlik (borliqdagi ixtiyoriy obyekt bilan birikish imkoniyatiga ega bo'lgan fe'llar – mas. уничтожить – yo'q qilmoq) aniqlangan [Buraixi, 13]. Tadqiqotning uchunchi bobida muallif destruktiv ta'sirni ifodalovchi fe'llarning media diskursida okkazonal qo'llanilishi, metaforik ko'chishi, gazeta matnlarida ta'sirchanlik (ekspressiya) xususiyatini oshirish vazifasini ommabop manbalar materiallari hamda badiiy adabiyotda uchraydigan misollar orqali ochib bergan. Bundan tashqari, inson tasavvurida aslida ijobiy voqelikka asoslangan axborotni qamrab oluvchi reklama diskursida aynan destruksiyaning ifodalovchi fe'llar iste'molchi diqqatini tortadigan darajada foydali natija berishi nazarda tutiladigan ijobiy harakatni (dori-darmon – og'riqni yo'q qiladi, maishiy tozalash vositasi – bakteriyalarni parchalab tashlaydi) ifodalashi dalillangan.

Metafora asosida destruksiyaning ifodalovchi fe'llarning ma'no ko'chishi, semantik

derivatsiyasi hamda funksional-uslubiy xususiyatlarini qiyosiy va kompleks yondashuv asosida chuqur tahlil etishda A.P.Sultanovanning rus va ingliz tillari materiali asosidagi dissertatsiya tadqiqoti e'tirifga sazovor. Unda fe'llarning metaforik nominatsiyasi tahlili va semantik derivatsiyasining modellashtirilishi keng qamrovli muammo bo'lib, destruksiya jarayoni til egalarining ongida, avvalo, urush, zarba berish hamda o'tkir, kesuvchi vositalar yordamida amalga oshiriladigan harakat sifatida konseptuallashtirilishi aniqlandi [Sultanova, 5]. Muallif destruktiv fe'llarning funksional-uslubiy jihatdan tahlil qilib, ularning badiiy, so'zlashuv, jargon, sleng va neytral qatlamlarga mansubligini aniqlashda statistik ma'lumotlarga asoslandi.

Jamiyat hayotida destruktiv jarayonlarning kuchayib ketishi natijasida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida destruksiya ketagiriyasining rus badiiy adabiyotiga ta'siri va tilini anglashdagi ahamiyatini hisobga olgan holda R.R.Galiyeva o'z tadqiqotida zamonaviy rus tilidagi destruktiv fe'llarning semantik-kognitiv tahlilini amalga oshirishni maqsad qildi. Muallif destruksiyaning ifodalovchi fe'llarning semantik va sintaktik jihatlari fanda yetarlicha o'rganilgan bo'lsada, uning funksional-diskursiv tavsifi hali to'liq yakunlanmaganiga alohida e'tibor qaratdi, zero "fe'llarning turli tipdagi diskursarlarda ishlatilishi ularning semantikasi va sintagmatikasidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi" [Galiyeva, 119-125]. Tadqiqotda destruksiyaning ifodalovchi fe'llarning kognitiv tasnifi ishlab chiqilib, ularning kategoriyaviy tuzilishi to'liq va qisman destruksiya modellariga ajratildi. Shuningdek, mazkur fe'llarning semantik tuzilishi 'destruksiya' kategorial semasi hamda semantik va grammatik belgilardan tashkil topishi, semantik belgilar – "strukturaning buzilishi", "strukturaning buzilishi", "yo'q qilinishi", "salbiy funksional o'zgarishi" bo'lsa, grammatik belgilar – "kauzativlik (sabab-oqibatmunosabati)", o'timli fe'llar uchun "faollik", o'timsiz fe'llar uchun "nafaollik" va "natijaviylik"ni qamrab olishi ochib berilgan. Dissertatsiyada destruktivlik tushunchasining ko'p qatlamli va murakkab tabiatini asoslanib, uning semantik kategoriyasi harakatning amalga oshirilish usuli, maqsadlilik, jadalligi, natijasi, vositasi hamda obyektning sifat-miqdoriy xususiyatlari uzviy bog'langan yaxlit semantik model sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri destruktiv fe'llarning postmodern badiiy diskursdagi namunalari asosida destruktiv semantikaning nafaqat harakatni, balki shaxsning ichki ruhiy holatini, ijtimoiy ziddiyatlarni emotsional keskinlikni ifodalashdagi faol ishtirokini ko'rsatdi. Bunda destruksiyaning ifodalovchi fe'llar g'azab, nafrat, hasad kabi emotiv leksika bilan uzviy bog'lanib, badiiy matnda kuchli ekspressiv va pragmatik ta'sir hosil qilishi aniqlandi.

Ikki o'zaro qardosh bo'lmagan rus va boshqird tillarida D.D.Gizatullin ham ilk marotaba destruktiv harakatni ifodalovchi fe'llarni zamonaviy leksikografiya yutuqlari asosida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qildi. Tadqiqotda destruktivlik semantik kategoriyasining yadrosi sifatida asosiy: natijani ifodalovchi ikki turdagi 'obyektning mavjud bo'lmay qolishi' va 'obyektning funksional jihatdan ishdan chiqishi', shuningdek harakat usulini bildiruvchi boshqa ikki xil ko'rinishdagi bo'lish va 'shaklni o'zgartirish' kabi komponentlar aniqlanib, ularning semantik tarkibi, aktant tuzilishi, valentlik xususiyatlari, sintaktik realizatsiyasi izchil o'rganildi [Gizatullin, 10]. Aynan ushbu semantik elementlar rus va boshqird tillaridagi destruktiv fe'llarning umumiy semantik tuzilishini belgilovchi asosiy kategoriyaviy belgilar sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, ishda Yu.D.Apresyan boshchiligidagi Moskva semantik maktabi doirasida ishlab chiqilgan integral leksikografik portretlash usuli samarali qo'llanilgan. Iboralarda qo'llanilishdan deyarli holi tub destruktiv fe'llarning nafaqat bevosita jismoniy buzilish va yo'q qilish jarayonlarini, balki ularning ko'p qatlamli semantik tuzilishga egaligini hamda til tizimida yuqori darajadagi funksional salohiyatini yana bir karra tasdiqlaydigan ko'chma, emotsional, psixologik ma'nolarni ifodalashi ko'rsatib berilgan.

R.Rasulov o'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishiga bag'ishlangan monografiyasida fiziologik, biologik hamda psixik holat fe'llarini bir-biriga yaqin turishini, ushbu holat fe'llari

ma'nosida jonli mavjudotlarda, ularning muayyan a'zolarida sodir bo'ladigan muayyan fiziologik o'zgarishlar, jarayonlar aks etishini misollar orqali tushuntirishga urindi. Olim tomonidan biologik holat fe'llariga nisbatan: "... predmet muayyan tashqi shakliy ko'rinishga ega bo'ladi. Bu shakliy belgi, tashqi ko'rinish predmetning hayotiyligi, faolligi, ta'sirchanligi, yashashdan to'xtagan ijobiy ko'rinishini yo'qotib, salbiy munosabat uyg'otuvchi shaklga, tashqi ko'rinishga o'tganligi bilan o'ziga xosdir" [Rasulov, 54]deya ta'riflanishi orqali tadqiqotda bir qancha destruksiyanı ifodalovchi fe'llar va ularning mazmun jihati yoritilganligining guvohi bo'lish mumkin. Ular kasallik, dard, qo'rquv, jaxl, biror narsa ta'siri, qattiq iztirob, keksalik, ko'p ishlash natijasida insonda yuzaga kelgan jismoniy o'zgarish holatini bildirishi bilan o'ziga xosdir. Bu o'zgarish asosida inson a'zolarining ichki va tashqi ta'sirlarga bo'lgan "ijobiy va salbiy munosabati" yotadi. [Rasulov, 61]

Mazkur tadqiqotda destruksiyanı ifodalovchi fe'llarning semantik mohiyati, struktur xususiyatlari hamda ularning til tizimidagi o'rni atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, destruktiv ma'noni anglatuvchi fe'llar harakatning buzish, parchalash, yemirish, yo'q qilish, zarar yetkazish kabi semantik komponentlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, ular tilning leksik-semantik tizimida mustaqil va murakkab guruhni tashkil etadi. Ushbu fe'llar nafaqat jismoniy obyektlarga nisbatan, balki abstrakt tushunchalar, ijtimoiy munosabatlar va psixologik holatlarga nisbatan ham qo'llanilishi bilan keng semantik qamrovga ega ekanligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, destruktiv fe'llarning semantik tuzilmasida intensivlik, yo'nalganlik, natijaviylik, subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabat kabi komponentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim fe'llarda harakatning yakuniy natijasi — obyektning to'liq yo'q qilinishi yoki funksional xususiyatining izdan chiqishi ustuvor bo'lsa, boshqalarida esa jarayonning bosqichma-bosqich amalga oshishi ifodalanadi. Bu holat destruktiv fe'llarni ichki semantik differensial belgilar asosida tasniflash imkonini beradi.

Destruksiyanı ifodalovchi fe'llarning o'rganilishi tarixiga nazar tashlanganda, dastlab ular umumiy harakat fe'llari tarkibida ko'rib chiqilgan bo'lsa, keyinchalik semantik maydon nazariyasi, komponent tahlil va kognitiv yondashuvlar asosida mustaqil tadqiqot obyektiga aylangani kuzatildi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar destruktiv ma'no ifodasini nafaqat leksik, balki pragmatik va diskursiv jihatdan ham yoritishga qaratilmoqda. Bu esa mazkur fe'llarning nutq jarayonidagi funksional yukini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, destruktiv fe'llarning metaforik qo'llanilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Til tizimida jismoniy buzish ma'nosidan kelib chiqqan holda ruhiy holatni izdan chiqarish, ijtimoiy tuzilmani yemirish yoki g'oyaviy qarashlarni inkor etish kabi ko'chma ma'nolar shakllanadi. Bu jarayon tilning kognitiv xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, inson tafakkurida "buzish" konseptining kengaygan semantik modelini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, destruksiyanı ifodalovchi fe'llar tilning semantik tizimida muhim o'rin tutadi va ular harakatning salbiy natijaga yo'naltirilgan shaklini ifodalash orqali nutqning ekspressivligi hamda ta'sirchanligini kuchaytiradi. Ularning tizimli o'rganilishi leksik-semantik maydon nazariyasini boyitadi, fe'l kategoriyasining ichki differensial xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi hamda tilshunoslikning kognitiv, pragmatik va funksional yo'nalishlari uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlarni qiyosiy-tipologik, korpus lingvistikasi va diskursiv tahlil asosida davom ettirish kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бурахи Ф. К. Глаголы деструктивного воздействия в современном русском языке (системные и функциональные характеристики), Авт. Дис. Кан. филологических наук, Воронеж-2011, -С. 23

2. Фаткуллина Ф. Г. Категория деструктивности в современном русском языке. Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук, УФА 2002. – С. 322
3. Галиева Р. Р. Семантико-когнитивный анализ деструктивных глаголов в современном русском языке (на материале произведений русской литературы конца XX – начала XXI в.) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Уфа – 2016, - С. 25
4. Гизатуллин Д. Э. Лексико-семантическая репрезентация категории деструктивности в русском и башкирском языках, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Уфа — 2020, - С. 25
5. Разова Е.В. Семантика и валентность глаголов разрушения в современном немецком языке. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Вологда 2003, - С.178.
6. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари, Тошкент. Фан, 1989. -141 б.
7. Султанова А.П. Полисемия глаголов деструкции в русском и английском языках 10.02.20 – сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Казань – 2008, - С.22